

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Mirvaliyev S. O‘zbek adiblari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1993.
4. Qo‘chqorova M. “Shukrullo hayoti va ijodining o‘zbek-turk adabiyotshunosligida o‘rganilishi”. O‘zbek tili va adabiyoti, 2021, 6-son.
5. Qo‘shjonov M. Sarhisob (shoir, nosir, dramaturg). Shukrullo ijodining olmos qirralari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016.
6. Orhan So‘ylemez, O‘mer Faruk Atesh. Turk Dunyasinda Cheyrek Asirliq Edebi Tecrube: Milli Ruh ve Edebiyata Yansimasi. – Ankara: 2020.
7. inlibrary.uz
8. ziyonet.uz
9. www.kitob.uz

MUZEYLARDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: (FARG‘ONA VILOYATI MUZEYLARI MISOLIDA)

Raxmatullaeva Saodat Ibragimovna

Qo‘qon davlat universiteti Tarix kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona viloyati muzeylarida arxeologik ashyolarni saqlash, restavratsiya qilish va namoyish etish sohasidagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2023-yilda e’tirof etilgan muzeylarning moddiy-texnik bazasi, harorat va namlik rejimiga rioya etilishi, ixtisoslashtirilgan restavratsiya maxsuslashtirilgan laboratoriyalarining yetishmasligi kabi bir qator dolzarb muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning muzeylar faoliyati sohasi

rivojiga ta'siri yoritiladi, hamda mavjud muammolarni hal etishning ilmiy-amaliy yo‘llari tizimli tarzda ishlab chiqilib tavsiya etiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются современные проблемы в области сохранения, реставрации и экспонирования археологических объектов в музеях Ферганской области. Будет рассмотрен ряд актуальных проблем, таких как материально-техническая база музеев, признанных Олий Мажлисом Республики Узбекистан в 2023 году, соблюдение температурно-влажностного режима, отсутствие специализированных реставрационных лабораторий. Также будут освещены реформы, реализуемые в рамках Постановления Президента Республики Узбекистан № PQ-261 от 27 мая 2022 года и их влияние на развитие сферы музейной деятельности, а также системно разработаны и рекомендованы научные и практические пути решения существующих проблем

Abstract. This article analyzes current problems in the field of preservation, restoration and display of archaeological objects in the museums of Fergana region. A number of urgent problems, such as the material and technical base of museums recognized by the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in 2023, compliance with the temperature and humidity regime, and the lack of specialized restoration laboratories, will be considered. Also, the reforms implemented within the framework of the Decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-261 of May 27, 2022 and their impact on the development of the field of museum activity will be highlighted, and scientific and practical ways to solve existing problems will be systematically developed and recommended.

Kalit so‘zlar: muzey, muammo, arxeologik ashyolar, restavratsiya, konservatsiya, Farg'ona viloyati, muzey fondlari, moddiy-texnika, raqamlashtirish.

Ключевые слова: музей, проблема, археологические объекты, реставрация, консервация, Ферганская область, музейные фонды, материал и технологии, цифровизация.

Keywords: museum, problem, archeological object, restoration, conservation, Ferghana region, museum fund, material and technology, digitization.

Muzeylar jamiyat hayotining asosiy madaniyat tomiri o‘tmishi va bugunini jonlantirib tarixiy tafakkurni tirik shakllantirib beruvchi bamisoli jonli muasasa hisoblanadi. Madaniy merosni sof tarzda saqlash, tadqiq etish va uni keng jamoatchilik ommasiga taqdim etishning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob va xilma-xil ashyolari xazinasini bir joyda mujassamlashtirgan, balki muhim ilmiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan markaz hamdir [1]. Farg'ona viloyati muzeylari, jumladan "Qo‘qon" davlat muzey-qo‘riqxonasi, ko‘plab arxeologik qazishmalardan topilgan moddiy madaniyat namunalarini o‘z fondlarida saqlaydi. Biroq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2023-yildagi parlament so‘rovi muzey sohasi oldida turgan bir qancha jiddiy muammolarni yuzaga chiqardi [2]. Ushbu muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini topish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2023-yil 23-iyundagi SQ-759-IV-son parlament so‘rovida muzey sohasidagi muammolar aniqlab olinib rasmiy ravishda qayd etildi. Mamlakatimizdagi aksariyat muzeylarning bugungi kuhdagi faoliyati va binolari ta'mirlashga muhtoj holatda, ayrimlarida isitish va sovitish tizimi ishlamaydi, moddiy-texnik bazasi bugungi zamonaviy talabga muhtoj va ma'nan eskirgan, muzeylar ekspozitsiyasining texnik jihozlari muzey talablari va standartlariga to‘liq mos kelmaydi [2].

Arxeologik ashyolarni to‘g‘ri saqlash uchun belgilangan me'yorlarga ko‘ra, havo harorati o‘rtacha 20 gradus, namlik esa 70% foizdan oshmasligi lozim [3]. Biroq muzey fondining saqlanish holati harorat va namlik darajasiga hamda xavfsizlik talablariga javob bermaydi. Natijada eksponatlar ko‘rgazmasi uchun joy yo‘qligi sababli ko‘plab noyob arxeologik ashyolar fond zaxiraxonalarida qolib

ketmoqda [2]. Bu holat, ayniqsa, Farg'ona viloyatidagi kichikroq shahar muzeylarida keng tarqalgan muammodir.

Restavratsiya va konservatsiya sohasidagi yig‘ilib qolgan talaygina muammolar alohida e'tiborni talab etadi. Arxeologik ashyolarni saqlash fondida ularni qaysi turga mansubligi bo'yicha ajratish, iqlim sharoitini muntazam nazorat qilib borish, yorug'lik ta'sirini kamaytirish zarur [3]. Bugungi kunda muzey ashyolari va kolleksiyalarini restavratsiya qilishga qaratilgan markazlashtirilgan laboratoriya tashkil etilishiga va shu kabi sharoitga katta zaruriyat mavjuddir [2]. Ko'pgina muzeylar, shu jumladan viloyat muzeylaridagi restavratsiya imkoniyatlari ham cheklangan.

Muzey fondlarida saqlanayotgan nodir qo‘lyozmalarni ilmiy tadqiq etish, ularning ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish, shular asosida elektron kataloglar tayyorlash va noyob ashyolarning faksimil nashrlarini amalga oshirish, yangi kashf qilingan manba, arxiv hujjatlari va tarixiy ashyolarni ilmiy tadqiq etish uchun fundamental loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan [2]. Bu esa muzey fondlaridagi arxeologik ashyolar to‘g'risidagi ma'lumotlarga keng jamoatchilik va ilmiy hamjamiyat tomonidan erkin kirish imkoniyatini ma'lum ma'noda cheklaydi. Bugungi kunda mamlakatimiz raxbarining muzeylar faoliyatiga doir so‘nggi yillardagi soha rivoji va kelgusi taraqqiyoti yo‘lidagi farmonlari va qarorlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish va oxirgi standartlarlar hamda dunyo va qoshni Markaziy Osiyo mamlakatlari tabribasiga olib chiqish o‘ta zarur hisoblanadi.

Jumladan Markaziy Osiyo davlatlari muzeylari tajribasi ko‘rsatishicha, Qozog'istonda fond zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan, harorat va namlik rejimiga rioya etiladi; Qirg'izistonda zamonaviy avtomatik havoni namlash tizimi, havo tozalagichlar, termogigrometr, yorug'lik o‘lchagich, dezinfiksiya tizimi mavjud; Tojikistonda arxeologik ashyolarni namoyish etish bilan bir qatorda ularning yasalishi va ishlatish texnikasi kabi jihatlariga e'tibor beriladi [3]. Ushbu

tajribalarni kelgusida soha rivoji va taraqqiyoti uchun O‘zbekiston muzeylari, jumladan Farg‘ona viloyati muzeylarida ham qo‘llash lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori muzey sohasidagi muammolarni hal etishning muhim huquqiy asosi bo‘ldi [4]. Ushbu qarorga muvofiq: 2022–2024-yillarda davlat muzeylarida ixtisoslashtirilgan restavratsiya laboratoriyalarini tashkil qilish; muzeylar faoliyatini raqamlashtirish; muzey ashyolarini ishonchli saqlashni ta‘minlash; sohaga xorijiy ilg‘or tajribalarni samarali qo‘llash kabi muhim vazifalar belgilandi [4].

Shuningdek, qarorga muvofiq Madaniy meros agentligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda xorijiy muzeylar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda tajriba almashish, xodimlar malakasini oshirish, muzey ashyolarini restavratsiya va konservatsiya qilish, yirik ko‘rgazmalar tashkil etish kabi aloqalarini yo‘lga qo‘yish vazifasi ham topshirildi. Arxeologik yodgorliklarni muzeylashtirish va ularni turizmning eng muhim diqqatga sazovor ob'ektiga aylantirish ham belgilangan manzilli reja asosida amalga oshirilmoqda [4].

Fargona viloyati hayotida muzeylarning o‘rni tadqiqotlari ko‘rsatishicha, muzeylar nafaqat ashyolar saqlash maskani, balki ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ma‘rifiy muassasa sifatida faoliyat yuritishi ham lozim [1]. Bu maqsadga erishish uchun muzey xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish, zamonaviy muzeyshunoslik standartlarini joriy etish va jamoatchilik bilan keng muloqotni kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda Farg‘ona viloyati muzeylari oldida turgan asosiy muammolar — moddiy-texnik bazaning eskirganli (hozirgi zamon talabiga javob bermasligi), saqlash sharoitlarining standartlarga mos kelmasligi, restavratsiya laboratoriyalarining yetishmasligi va raqamlashtirish tizimining yo‘qligi — bevosita arxeologik merosning saqlanishiga ta'sir korsatib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-261-son Qarori va Oliy Majlisning 2023-yildagi parlament so‘rovi bu muammolarni rasmiy tan olish va

ularni tizimli hal etishga yo‘l ochdi. Restavratsiya laboratoriyalari tashkil etish, muzey fondlarini raqamlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mutaxassislar va kadrlar malakasini oshirish — ushbu to‘rt yo‘nalishda izchil harakat qilish Farg‘ona viloyati muzeylarini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarishning asosiy sharti va omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fargona madaniy hayotida muzeylarning o‘rni // Obrazovanie i innovatsionnye issledovaniya. — 2023. — №12. — URL: <https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3406/2997/8304>
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining SQ-759-IV-son parlamentso‘rovi natijalari to‘g‘risida. — 2023. — 23-iyun. — URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6521718>
3. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida arxeologik ashyolarni saqlash va restavratsiya // Madaniy meros agentligi. — URL: <https://www.interaktiv.oak.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi PQ-261-son Qarori "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". — URL: <https://lex.uz/docs/-6040013>
5. Arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirish // TSUULL. — URL: https://tsuull.uz/sites/default/files/arxeologiya_merosi_obyektlarini_muzeylashtirish_monografiya_compressed.pdf
6. Madaniy meros obyektlarini muzeylashtirishning ahamiyati // bukhari.uz. — 2024. — URL: <https://buxhari.uz/?p=37194&lang=oz>

FARG‘ONA VILOYATIDA TURIZM RIVOJLANISHINING TARIXIY-MADANIY OMILLARI (1992-2023 YILLAR).

Mirzaxamdama Dildora Zafarovna

Qo‘qon davlat universiteti

Tarix kafedrası o‘qituvchisi

dildoramirzahamdama24@gmail.com